Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlashning ustuvor yo‘nalishla...

ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

farovonligini, xalqning to‘kin-sochin hayot kechirish imkoniyatlariga ham ega bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLLAR RO‘YXATI:

1. Tadbirkorlik asoslari. S. N Usmonov, Yu. T Dadaboyev. Farg‘ona nashriyoti. 2000-y.
2. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi – N. 234-bet, Davlat ilmiy nashriyoti; TOSHKENT-2007;
3. O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respudlikasida tadbirkorlik to‘g‘risida» qonunidan https://qomus.info/oz/encyclopedia/t/tadbirkorlik/
4. Karimov I A O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlariv taraqqiyot kafolatlari. Toshkent. O‘zbekistin 1997.325b. Erishilgan marralar bilan chegarlanmasdan, boshlangan islohatlarimmizni yangi bosqichga ko‘tarish-bugungi kundagi eng dolzarb vazifalarimmizdir.23 tom Toshkent O‘zbekiston. 2015 y. 404b
5. Mirziyoyev.Sh.M. Buyuk kelajagimmizni mard va oliyjanob xalqimmiz bilan quramiz. 1 tom. Toshkent. O‘zbekiston 2017 y. 488b.
6. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh Mirziyoyev Tadbirkorlar bilan uchrashuvi Toshkent 2021;
7. https://www.rsbctrade.ru 2012 y 16 iyun.
8. MSME Day http://www.intracen.org/MSME-day/2019/

TADBIRKORLIK AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA

E.A.Muminova
Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti Professori
A.A.Jo‘rayev
Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti 2-bosqich M2-23 MBA guruh magistranti

Annotatsiya
Ushbu maqolada mamlakatimizdagi aholining iqtisodiy farovonligi oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, tadbirkorlarga yaratilayotgan shar-sharoitlar, kambag‘allik qisqartirib, bandlik darajasini oshirishning dolzarbligi ko‘rib chiqilgan. Shu bilan birga, oilaviy mehnatining raqobatbardoshligi, oilaviy tadbirkorlik, ularning bandligini ta’minlash va O‘zbekiston Respublikasi aholisining iqtisodiy faollik darajasi tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: Iqtisodiyot, iqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy faollik, tadbirkorlik, oilaviy tadbirkorlik, tadbirkorlikni rivojlantirish, huquq, kambag‘allik, kambag‘allik qisqartirish, bandlik.

2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish. Yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard dollarga va aholi jon boshiga daromadlarni 4 ming dollarga yetkazish. Makroiqtisodiy barqarorlik hamda iqtisodiy rivojlanishni zarur darajadagi energetika, suv va infratuzilma resurslari bilan ta’minlash. Pul-kredit, fiskal va tashqi savdo siyosatlarini o‘zaro muvofiqlashtirish hamda tovar va xizmatlar bozorida raqobat muhitini yaxshilashga qaratilgan tarkibiy islohotlarni davom ettirish orqali 2030-yilga borib yillik inflatsiyani 5-6 foiz darajasida ta’minlash. Iqtisodiyotda transformatsiya va institutsional islohotlarni

Published: 23.12.2024
Cite this article: E.A.Muminova, A.A.Jo‘rayev (2024). Tadbirkorlik aholi farovonligini oshirish omili sifatida. Emro Science and Education, 1(4). https://journal.emro.uz/public/maqola/1052
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

izchil davom ettirish, mamlakatda qulay investitsion ishbilarmonlik muhitini ta’minlash hamda muvozanatlashgan pul-kredit siyosatini amalga oshirish. Davlat qarzining yalpi ichki mahsulotga nisbatini 50 foizdan oshmasligi uchun o‘rta muddatlarga mo‘ljallangan davlat qarzini boshqarish strategiyasini amalga oshirish. Asosiy kapitalga kiritiladigan investitsiyalar hajmining yillik o‘rtacha 7 foiz atrofida o‘sishini ta’minlash. Aholi farovonligini ta’minlash va hududlarda kundalik masalalarni hal etishda mahallani jamoatchilik hamda davlat organlari o‘rtasidagi “tayanch ko‘prik”ka aylantirish. Mahallaning mablag‘larini aholining ovoziga ko‘ra, infratuzilma loyihalariga yo‘naltirish amaliyotini joriy qilib, mahallalardagi muammolarni hal etish uchun ajratiladigan mablag‘lar miqdorini kamida 3 barobar ko‘paytirish. Aholi tashabbusi bilan infratuzilmani yaxshilashga ajratiladigan mablag‘larni 24 trillion so‘mga yetkazish. Mahallalarda 100 dan ortiq davlat xizmatlarini “bir qadam”da ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish. Mahallalarda aholi bilan ishlashga qaratilgan jarayonlarni 100 foiz raqamlashtirib, har bir mahallada “elektron xizmat nuqtalari”ni ishga tushirish. Fuqarolarni davlat hisobidan kasb-hunarga o‘qitish, ularning zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha kasbiy ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish. 2 million nafar fuqarolarni kasb-hunar, tadbirkorlik ko‘nikmalari va xorijiy tillarga o‘qitish. Kasbga o‘qitish markazlarining 1,6 ming nafar o‘qituvchilarini xalqaro standartlar asosida malakasini oshirish. Kasb-hunarga o‘qitishda xususiy sektor ulushini 30 foizga yetkazish. Monopol sohalarni bozor tamoyillariga izchil o‘tkazish, iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini oshirish, tadbirkorlarga erkin faoliyat yuritishi uchun eng qulay sharoitlar yaratish. Mahalliy tadbirkorlik subyektlariga strategik foydali qazilma konlarini berish amaliyotini kengaytirish, oltin, kumush, rangli metallar, volfram, ko‘mir hamda noruda konlarga berilgan ruxsatnomalar sonini 4 barobar oshirish. Oilaviy tadbirkorlik asosida bandlikni ta’minlashda oddiy “qo‘l mehnati”dan sanoatlashgan ishlab chiqarish bosqichiga o‘tish, uskuna sotib olish uchun imtiyozli kredit miqdorini 100 million so‘mgacha oshirish. Tadbirkorlik subyektlariga barcha xizmatlarni “yagona darcha” tamoyili asosida onlayn portal orqali ko‘rsatish va xizmat ko‘rsatish vaqtini o‘rtacha 3 barobarga qisqartirish. Norma ijodkorligi faoliyatining islohotlar bilan uyg‘unligini ta’minlash va davlat huquqiy siyosatining institutsional asoslarini rivojlantirish. Huquq tizimi raqobatbardoshligini oshirish, aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun qulay bo‘lgan sodda va ixcham qonunchilik tizimini yaratish. Mamlakatda kambag‘allik darajasini qisqartirish. 2026-yilga qadar kambag‘allikni 2022-yilga nisbatan 2 barobarga, 2030-yilga qadar esa keskin qisqartirish. Kambag‘allikka tushish xavfi mavjud 4,5 million aholi daromadini oshirish. Ijtimoiy sheriklik asosida 500 ming malakali mutaxassis tayyorlash.[97]

1-jadval[98]
Tadbirkorlikni rivojlantirishga ta’sir qiluvchi omillar

Tadbirkorlikning ahamiyati	Davlatning roli	Jamiyat va tadbirkorlik
Ish o‘rinlari yaratish:	Qulay biznes muhitini yaratish:	Ijtimoiy mas’uliyat
Soliq tushumlarini oshirish:	Moliyaviy yordam:	Mahalliy resurslardan foydalanish

[97] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF-158-son “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni https://lex.uz/ru/docs/-6600413.

[98] Muallif ishlanmasi

Innovatsiyalar va texnologiyalar:	Tadbirkorlik ta’limi	Ayollar va yoshlar tadbirkorligi

Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik muhim rol o‘ynaydi, chunki u iqtisodiy o‘sishni tezlashtiradi, yangi ish o‘rinlarini yaratadi va innovatsiyalarni joriy etadi. Quyida ushbu masalada asosiy jihatlar keltirilgan. Tadbirkorlik yangi bizneslarni ochish orqali aholini band qilishga yordam beradi. Yangi korxonalar davlatga soliqlar to‘lash orqali mahalliy infratuzilma va xizmatlarni rivojlantiradi. Tadbirkorlar yangiliklarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishda asosiy kuch hisoblanadi. Soliq imtiyozlari, tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash dasturlari va oddiylashtirilgan ruxsat olish jarayonlari tadbirkorlikni rag‘batlantiradi. Startaplar va kichik bizneslar uchun kredit va grantlar taqdim etilishi lozim. Tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun o‘quv dasturlari va treninglar tashkil qilish zarur. Tadbirkorlar jamiyat ehtiyojlariga mos mahsulotlar va xizmatlarni taklif etishlari kerak. Mahalliy resurslardan foydalanish Mahalliy xomashyo va ishchi kuchidan foydalanish hududiy iqtisodiyotni rivojlantiradi. Ularni rag‘batlantirish orqali farovonlikning umumiy darajasini oshirish mumkin. Aholi farovonligini oshirish uchun tadbirkorlikni rivojlantirishga e’tibor qaratish, ayniqsa, mahalliy va ijtimoiy masalalarga yo‘naltirilgan bizneslarni qo‘llab-quvvatlash muhimdir.

Inson faoliyati turlicha bo‘lib, turli xil yo‘nalishga qaratilgan. Ularning ichida tadbirkorlik faoliyati alohida o‘rin tutadi. Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotda tadbirkorlik qobiliyati iqtisodiy resurs hisoblanadi va albatta kerakli shart-sharoitlar bilan ta’minlanishni taqozo etadi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar davomida, ayniqsa, uning hozirgi bosqichida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, unga keng erkinlik berishga e’tibor qaratilmoqda.[1]

O‘zbekistonda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari tahlil qilingan, jumladan ayollar tadbirkorligining jamiyatdagi o‘rni, ayollarning gender va reproduktiv huquqlarining milliy va xalqaro jihatlari hamda bozor iqtisodiyoti sharoitida ayollarning ijtimoiy-siyosiy kuch sifatida shakllanish jarayonlariga bag‘ishlangan ko‘plab tahlillar qilingan. Shu bilan birga, oilaviy mehnatining raqobatbardoshligi va ularning bandligini ta’minlashda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatlarining alohida o‘rni tahlil etilgan va ularni takomillashtirish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar keltirilgan.[2]

Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning bir yo‘nalishi byurokratik to‘siqlar va tadbirkorlik faoliyatiga to‘sqinlik qiluvchi ortiqcha me’yoriy-huquqiy hujjatlarni qisqartirishdan iborat. Ma'muriy tartib-qoidalarni soddalashtirish, litsenziyalash jarayonlarini soddalashtirish va qog‘ozbozlikni minimallashtirish xususiy biznes uchun qulay muhit yaratish yo‘lidagi muhim qadamdir. Bunga ma'muriy tartib-taomillarda shaffoflik, hisobdorlik va samaradorlikni oshirishga qaratilgan hukumat tashabbuslari orqali erishish mumkin. Ko‘rib chiqilishi kerak bo‘lgan yana bir muhim jihat -tadbirkorlar uchun moliyalashtirish imkoniyati. Sarmoya etishmasligi ko‘pincha ishbilarmon tadbirkorlar duch keladigan asosiy to‘siqlardan biri sifatida tilga olinadi. Shuning uchun hukumatlar kichik va o‘rta korxonalar (KO‘B) uchun moliyalashtirishni osonlashtiradigan mexanizmlarni yaratishi kerak. Bu ixtisoslashtirilgan moliya institutlarini tashkil etish yoki tadbirkorlar tomonidan olingan kreditlar uchun kafolatlar yoki subsidiyalar berish orqali amalga oshirilishi mumkin.[3]

2-jadval[99]
Aholining iqtisodiy faollik darajasi

Klassifikator	2019	2020	2021	2022	2023
O‘zbekiston Respublikasi	75	73,8	74,1	73,7	72,9
Toshkent shahri	86,9	88,8	87,4	88,3	87
Andijon viloyati	77,2	74,7	75,7	76,5	75,9
Namangan viloyati	73,2	72,7	72,6	71,2	70,8
Farg‘ona viloyati	74,5	73	73,6	73,9	73,6

Jadval ma’lumotlaridan shuni ko‘rishimiz mumkinki O‘zbekiston Respublikasi aholisining iqtisodiy faollik dajasi 2019 yili 75 kishini tashkil etgan va 2023 yilga kelib 72,9 kishi ko‘rsatkichini ko‘rsatgan. 2019 yili Toshkent shahrida 86.9 kishining iqtisodiy faolligini ko‘rsatgan va 2023 yil yakuniga 87 kini ko‘rishimiz mumkin, bunga sabab Toshkent shahrida tadbirkorlik va biznesni kengaytirishi. 2019 yil Andijon viloyati 77,2 kishi, 2023 yilga kelib 75.9 kishini tashkil etgan, shu ko‘rsatkichlar bilan Namangan viloyati 2019 yili 73.2 kishi, 2023 yil yakuniga 70,8 kishini tashkil etgan. Namangan viloyatida investitsiya va tadbirkorlik muhitini rivojlantirish, aholi farovonligini oshirish chora-tadbirlari o‘tkazilmoqda. 2019 yil Farg‘ona viloyatida Aholining iqtisodiy faollik darajasi 74,5 kishi bo‘lib, 2023 yilda esa 73,6 kishini tashkil etgan. Farg‘ona shahri mamlakatimizning yirik sanoat markazlaridan biri hisoblanadi. 296 mingdan ortiq aholi istiqomat qilayotgan shaharda “Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodi” MChJ, “Farg‘onaazot”, “Issiqlik energo markazi”, “Farg‘onadonmahsulotlari”, “Avtooyna” AJ kabi 10 dan ortiq yirik sanoat korxonalari, 164 ta xorijiy investitsiyalar va sarmoyalar ishtirokidagi korxonalar aholining iqtisodiy faollik darajasini oshirish chora-tadbirlari faoliyati yuritilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida bandlike ko‘rsatkichlari, hududlar kesimida bandlarning jinslar, rasmiy va norasmiy sektorlar, davlat va nodavlat sektorlar bo‘yicha taqsimlanishi, ishsizlik darajasi va mehnat bilan band bo‘lgan fuqarolar, iqtisodiy faol va bandlar to‘g‘risida tahliliy ma’lumotlar keltirilgan.[4]

Tadqiqot mavzusi va maqsadi: ushbu tadqiqotning asosiy mavzusi O‘zbekistonning milliy taraqqiyot strategiyasi doirasida kambag‘allikni qisqartirish masalalarini o‘rganish va xalqaro tajribalarni tahlil qilishdir. Tadqiqotning maqsadi – O‘zbekistonda kambag‘allik darajasini kamaytirish bo‘yicha samarali strategiyalarni ishlab chiqish hamda ularni xalqaro tajribalar bilan solishtirish orqali takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlash. Tadqiqotda ko‘rib chiqilayotgan asosiy muammo – O‘zbekistonda kambag‘allik darajasining yuqoriligi va uni qisqartirishda mavjud milliy

[99] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonida tuzilgan. https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2
https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_537.pdf

strategiyalarning samaradorligi. Shu bilan birga, mamlakatdagi kambag‘allikni kamaytirish yo‘llarini xalqaro tajribalar asosida qanday takomillashtirish mumkinligi asosiy savol sifatida ko‘tarilgan. Tadqiqotda sifatli va miqdoriy metodlar kombinatsiyasi qo‘llanilgan. Asosan, statistik ma’lumotlarni tahlil qilish, iqtisodiy ko‘rsatkichlarni solishtirish, hamda xalqaro mamlakatlarning kambag‘allikni kamaytirish strategiyalarini o‘rganish uchun komparativ tahlil metodlari ishlatilgan. Shuningdek, intervyu va ekspert fikrlarini yig‘ish orqali empirik ma’lumotlar to‘plangan. Praktik tavsiyalar sifatida, hukumatga kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha strategik rejalarni ishlab chiqishda xalqaro tajribalarni chuqurroq tahlil qilish, mahalliy sharoitlarga moslashtirish va samarali amalga oshirish mexanizmlarini yaratish tavsiya etiladi. Nazariy jihatdan esa, tadqiqot milliy va xalqaro taraqqiyot strategiyalarini integratsiyalash yo‘llarini ko‘rsatadi.[5]

Yashil iqtisodiyotga o‘tishning zarurati va ahamiyati, yashil iqtisodiyotni tuzilishi va uning muhim hususiyatlari, mamlakatlarni rivojlantirishda, iqtisodiy o‘sishni barqarorligini ta’minlashdagi ahamiyati yoritilgan. Qayta tiklanadigan energiya manbalarini ishlab chiqarish ugle rod chiqindilarini kamaytirish, enegriya tejamkorligini ta’minlash masalalariga atroflicha to‘xtalib o‘tilgan. Sanoat tarmoqlarida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va energiya tejamkorligini ta’minlashda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning energiya sig‘imligi tahlil qilingan. Mintaqalar miqyosida aholi jon boshiga iste’mol qilinayotgan energiya sarfi ma’lumotlari, uglerod oksidi SO2 ning atmosferaga chiqarilishi bo‘yicha rivojlangan mamlakatlarning reytingi ko‘rib chiqilgan. O‘zbekistonda SO2 emissiyasini tartibga solishi bo‘yicha yo‘nalishlar keltirilgan.[6]

Adabiyotlar ro‘yhati.

1. Ibodulloyevich, I. E. (2023). KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI YANADA RIVOJLANTIRISH UCHUN QULAY ISHBILARMONLIK MUHITINI SHAKLLANTIRISH. Gospodarka i Innowacje., 42, 481-484.

2. Gayratovna, Y. U. (2024). O ‘ZBEKISTONDA OILAVIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI (AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH MISOLIDA). FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA JURNALI| JOURNAL OF SCIENCE, EDUCATION, CULTURE AND INNOVATION, 3(1), 9-14.

3. Арипов, О.А., 2017. Приоритетные направления развития малого бизнеса и предпринимательства в Узбекистане. Российское предпринимательство, 18(24), pp.4329-4340.

4. Kamron, V., & Axralovna, S. N. (2024). Tadbirkorlik subyektlarida aholi bandligini ta’minlashga ta’sir etuvchi omillar va uning o‘ziga xos xuxusiyatlari. ILM FAN XABARNOMASI, 1(1), 164-169.

5. Tashtanova, D. (2024). MILLIY TARAQQIYOT STRATEGIYASI: O ‘ZBEKISTONDA KAMBAG ‘ALLIKNI QISQARTIRISH MASALALARI VA XALQARO TAJRIBALAR TAHLILI. Nordic_Press, 1(000001).

6. Муминова, Э. А. (2023). ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШ МЕХАНИЗМИ СИФАТИДА. Экономика и финансы (Узбекистан), (1 (161)), 16-22.